



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE'RIYATIDA IYHOMNING QO'LLANILISHI

### THE USE OF ALLUSION IN THE POETRY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Nutfullayeva Mafzuna Kenja qizi

Termiz davlat universiteti magistranti

E-mail: [mafzunanutfullayeva@gmail.com](mailto:mafzunanutfullayeva@gmail.com)

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./DKMF7252](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./DKMF7252)

**Annotatsiya.** *Ushbu tezisda Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida badiiy tasvir vositalaridan iyhom she'riy san'atining o'rni, qo'llanilish tamoyillari, so'zning ma'nolaridan foydalanishda muallif badiiy mahorati yoritildi. Devonidagi she'rlarini o'rganish asnosida iyhom she'riy san'ati haqidagi nazariy qarashlar va uning genezisi o'rganildi. shoir she'rlari tahlili jarayonida ijodida iyhomning o'rni belgilandi.*

**Kalit so'zlar:** *iyhom, san'atpardoqlik, nuktadorlik, taxyil, badiiy yaratiq, fikriy kashfiyot, lafze.*

**Annotation.** *This thesis sheds light on the role of poetic allusions in the lyrics of Zahiriddin Muhammad Babur, the principles of their use, and the author's artistic skill in using the meanings of words. In the course of studying his poems in his collection, theoretical views on poetic allusions and its genesis were studied. In the process of analyzing the poet's poems, the role of allusions in his work was determined.*

**Key words:** *hint, artistry, punctuation, imagination, an artistic creature, intellectual discovery, the word.*

Buyuk qalb egasi, mumtoz shoir Zahiriddin Muhammad Boburning jahon tamadduniga hissa qo'shgan “Boburnoma” asari bilan birga qalb torlari va zorlari singdirilgan lirik asarlari ham ham mumtoz adabiyotimizning o'lmas xazinasidir. Bobur - ijodini o'rganish allaqachon boshlangan va bu borada ko'plab yutuqlarga erishilgan, yana o'rgangan sari ko'plab ijod qirralari ochilaveradigan buyuk siymolardan biridir. Muallifning lirikasi uning dunyoqarashi, shaxsiyati, hissiy kechinmalari, badiiy mahoratini aks ettirgan ko'zgidir. Kichik yuragida olamni sig'dirgan shoir she'rlarida ham olam yaratadi. Bobur kechinmalarini ifodalashda uning san'atpardoqligi, nuktadorligi, yuksak san'atkorligi, teran fikrlar sohibiligi namoyon bo'ladi. Bobur she'riyati bo'yicha ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, lirikasi va undagi badiiy mahorat qirralari ko'plab tadqiqotlarning markaziga aylangan. Ammo chet el tadqiqotchilari nigohida uning ulug' sohibdevon shoir sifatida kam o'rganilganligini guvohi bo'lamiz. Chunki shoir she'rlari ohangi bilan birga tug'ilgan va badiiy yaratilarga boy. Ularni esa to'laligicha tarjimada namoyon ettirish mushkildir.



Bobur adabiy merosi shakl va mazmun tugalligi bilan birga izchilligi, tasvirlarning qo'llanish uslubi, badiiy san'atlarning o'rni jihatidan ham beqiyosdir. Shoir ijodidagi badiiy tasvir vositalarini o'rganish lirikasining ochilmagan va yangi qirralarini ochishga, mohiyatini anglashga imkon yaratadi. Matnshunos va boburshunos olim Vahob Rahmonov ta'biri bilan aytganda: “Badiiy mahorat bobida biror o'zbek shoh va shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi” [Rahmonov, 2015: 154].

Badiiy san'atlar mumtoz adabiyot va mumtoz she'riyatning asosi hisoblanadi. Ular nazmiy asarlarning tub mag'zini yoritib beruvchi, she'rni go'zallashtiruvchi, unga chiroyli ma'no beruvchi va she'rni she'r qiluvchi muhim vositalardir. She'riy san'atlar she'rning faqat shakliy bezagi yoki unga kutilmagan ma'nolar yuklovchi vazifasini bajarmaydi. Balki, ularning misra va baytlarda kelishi shoir aytmoqchi bo'lgan ma'noni yetkazishga ko'maklashuvchi va muallif yuragidan o'tkazgan tuyg'ularni o'zgalar ham his qilishiga yordamlashuvchi “kalit so'zlar”dir.

She'rlari samimiylikka yo'g'rilgan ijodkor so'zlarning turli ma'no tovlanishlarini namoyish etishda badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalangan. Bobur uslubining yorqinroq namoyon bo'lishida iyhom she'riy san'ati bilan bog'liq badiiy yaratilarga juda boy. Lirikasida iyhom Boburona qarashlarning ro'yobga chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Iyhom shoir she'rlaridagi ma'no qatlamlariga zohiriylik va botiniylik, sirlilik baxsh etgan. Alisher Navoiy iyhom san'atini “xossa ma'no” ifodalovchi tasvir vositalaridan biri ekanligini ta'kidlagan. Ushbu san'at bayt tarkibida bir so'zni ikki ma'noda qo'llash usulidir. Vahob Rahmonov Bobur she'riyati bo'yicha qilgan tadqiqotlari, xususan, “Boburshoh: shoir va adib” maqolasida lirikasida iyhom san'atining o'rni, so'zning turfa ma'nolaridan foydalanishdagi iste'dod qirralarini ko'rsatib o'tgan. Buning isboti tariqasida devoni va “Boburnoma” asaridagi eng go'zal va ilmda muammoli bo'lgan baytlaridan misollar keltirib, har bir ma'no tovlanishlarini ilmiy xulosalari bilan sharhlab bergan.

Iyhom murakkab ma'naviy san'at bo'lib, U haqida ta'rif va qarashlar turlicha berilgan. Xususan, iyhom she'riy san'ati haqidagi nazariy ma'lumotlarga ko'ra, xususan, “Al-mo'jam”da san'at izohi quyidagicha: “Ihom – shubhaga solish san'atining mohiyati shundan iboratki, bunda ikki ma'noli so'z ishlatadilar: birinchi ma'nosi yaqin, yuzaki, ikkinchisi esa uzoq...”. [Boltaboyev, 2008: 326]. “Jam'i muxtasar”da esa: “Ikki yoki undan ortiq ma'noga ega bo'lgan har qanday so'z ihom deyiladi...” [Husayniy, 198: 76]. Ilk marotaba fors adabiyoti manbasi bo'lgan Rashididdin Vatvotning “Hadoyiqu-s-sehr fi daqoyiqu-sh-she'r” kitobida iyhomni taxyil deb ham ataladi. Rashididdin Vatvot izohida: “...Bunda shoir yoki dabir nasr yoki nazmda iki ma'no anglatuvchi so'zni qo'llaydiki, ulardan biri odatdagi va ikkinchisi kamyob ma'noda bo'lsin...”. [Boltaboyev.H:2008, 250]. Atoulloh Husayniy esa bu san'atning ikki turini qayd etadi. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul balog'a” asarida ushbu

tasvir vositasini qo'llashda uch ma'no nazarda tutilishini ta'kidlaydi: “Bu aningtek bo'lurkim, lafze iste'mol qilurlarkim, andin uch ma'no qo'pg'ay...” [Taroziy, 1996: 326]. Binobarin, murakkab bo'lgan ushbu she'riy san'atdan foydalana olish ham ijodkordan katta malaka va yuksak badiiy mahorat talab qiladi.

Shuni aytish joizki, avvalo, iyhom kitobxonni baytdagi ma'no olamini kezishga undaydi. Unga berilgan ta'rif va izohlardan kelib chiqsak, bu ijodkor san'atdan, so'z ma'nolaridan qanday foydalanishiga, shaxsiy uslubiga va uning mahorati bilan ham bog'liqdir. Bobur she'riyatini o'rgangan va urdu tiliga tarjima qilgan tadqiqotchi Qamar Rayis tadqiqotida nafaqat Bobur ijodida balki o'zbek xalqining so'zlari va muloqotida iyhom she'riy san'atining o'rni beqiyosligini ta'kidlaydi: “O'zbeklarda gurunlarda, davralarda o'zaro muomalada so'z o'yini kata ahamiyat kasb etadi. Hozir ham ziyrak, hozirjavob odamlar suhbatga jon kiritish uchun tagdor jumlar, “kosa tagida nimkosa” qabilidagi gaplarni ishlatadilar. Eshituvchilardan biron-biri gap tagiga yetib qolib, qoyil ham qoladi. Gap-gashtaklardagi bu an'ana bardavom bo'lishining natijasi shuki, hozirgi zamon o'zbek she'riyatida ham iyhom she'riy san'ati saqlanib kelmoqda”. [Qamar, 2007: 58]. Bobur she'riyatida muhim o'rin egallab, mazmun jihatdan mukammalligini ta'minlagan. Iyhomning shoir ijodidagi qirralarini misollar orqali ko'rib o'tsak:

*Bobur ul gul ko'yida bulbul kibi topting maqom,  
Bir navoe rost qil mundoq maqoming borida.*

She'rlaridagi rangdorlikni tabiatdan olgan Bobur yor ishqida shunchalik kuyadiki, natijada yor ko'yida bulbuldek maqomga erishadi. Ishqda shunday maqoming borida bir bulbuldek navo qild. Baytda Bobur yorni gul deb ataydi. Bu esa istiora san'atini hosil qilgan. O'zini bulbulga qiyoslash orqali tashbeh san'atini vujudga keltirgan. Ushbu o'xshatish vositasida oshiq ishq va holati yanada kuchaytirilgan. Sababi, bilamizki, gul, oshiq bulbul va uning ishqida nolish qilishi mashhur va ko'p uchraydigan sujet. Bu yerda rost so'zi ikki ma'noda kelgan:

1. *Bir haqiqiy navo qil,*
2. *Shashmaqomning sho'balaridan biri.*

Bizga anglashiladigan ma'nosi bulbulga o'xshab bir haqiqiy navo qil, yashirin, anglashimiz kerak bo'lgan ma'nosi esa shunday kuylay oladigan maqoming borida rost maqomdagi kuyini kuylagin. Muallif bulbulga o'zini mengzash berish vositasida nozik so'z o'yini qilgan.

*O'tti xo'blar oy kabi, yo'qtur aroda ul quyosh,  
Vahki, ul badmehrni ko'rmon, o'todur mohlar.*

Baytdagi iyhom “mohlar” so'zi orqali hosil qilingan. Mohlar so'zi bir jihatdan, oylar (vaqtga nisbatan) ma'nosini anglatga, bosh tarafdin, oy kabi go'zallar ma'nosini (oylar) ma'nosini anglash mumkin. Oyga o'xshaydigan juda

ko‘plar o‘tti, qancha vaqtlar o‘tyapti, lekin ular orasida quyosh chehrali badmehnri ko‘rmayman; Oy kabi chiroyli ko‘plab go‘zallar o‘tmoqda, lekin ular orasida quyosh chehrali bemehr go‘zalimni ko‘rmayman. Endi esa ular orasidan bizga yaqinroq va shoir maqsad qilgan ma‘noni aniqlashimiz lozim. Bayt ishqiy ruhda, yor ta‘rifida ketayotganligi va mohlar so‘zining yorga nisbat berilish ma‘nosi mashhur ekanlinidan kelib chiqsak, ikkinchi ma‘nosi orqali muallif maqsadi amalga oshirilganligini guvohi bo‘lamiz. Boburning so‘zning shakl va ma‘no munosabatidagi mahorati shundaki, bu so‘z bilan bir necha ma‘noni ifodalay olgan:

*Hijronda, sabo, yetti falakka ohim,  
Gar ul sori borsang, budur dilxohim.  
Kim, arzi duo niyoz ila qilg‘oysen,  
Gar so‘rsa, men xastani gulrux mohim.*

Tarjimai hollik ruhi singdirilgan ushbu ruboiyda so‘z zamiridagi haqiqiy rang-barang ma‘noviy tovlanishlarini ko‘ramiz. Ishaqiy baytda hijron motivi cho‘qqisiga chiqqan. Oshiq saboga hijron olovidan ohi falakka ham yetgani, yoriga tarafga yelganda ishqdan bemor bo‘lgan men xastaning holin so‘rasa, duoyu niyoz ila arz qilasan. Bu oshiqning dil amri, dil xohishi ekanligini ham ta‘kidlaydi. Shoir saboga xitob orqali jonlantirmoqda. Boburni telba qilgan yor kim ekan?! Ruboiy so‘ngiga e‘tibor qaratsak, “gulruh mohim”. Uni quyidagicha talqin qilish mumkin.

*Gar so‘rsa men xastani gulrux mohim.  
Gar so‘rsa men xastani Gulrux mohim.  
Gar so‘rsa men xastani gulrux Mohim.*

Ruboiy Bobur hayoti bilan bog‘liq. Tarixdan yaxshi ma‘lumki, Gulrux va Mohibegimlar Boburning xotinlari bo‘lib, ular farzandlarining onasi bo‘lgan. Ayniqsa, Mohibegim uning yaqin, ishongan hamrohi bo‘lgan. Buni bayt mazmunidan ham anglash qiyin emas. Rumer Godenning “Gulbadan” asarida Boburning hayotida Mohibegim qanday o‘rin tutgani butun bo‘y-basti ila bayon etilgan. Bundan tashqari, tarixiy manbalarda Bobur tilidan ham qayd etiladi:

*Hajr aro ishrat oyog‘in bormu no‘sh aylar chog‘im,  
Sensizin yurub oyoq ichkuncha sinsun oyog‘im.*

Shoir ijodida iyhom boshqa tasvir vositalari bilan ham birga kelib, ma‘noni ifodalash usulida o‘ziga xoslikni hosil qilgan. San‘atlar uyg‘unligi shakl mukammalligina emas, ma‘no tugalligini ham ro‘yobga chiqaradi. Tajnis ham, iyhom ham jinsdosh so‘zlar asosiga quriladi. Ushbu baytda tajnis ham, iyhom ham qo‘llangan. “oyoq” so‘zi o‘z ko‘rinib turgan ma‘nosi bilan birga mumtoz adabiyotda “qadah” ma‘nosida ham keladi. Bayt so‘ngida qo‘llangan oyoq so‘zining har ikki ma‘nosida ham shoir fikrini anglash mumkin. Hajr dardi bilan boshlangan muallif fikri sensiz yurub qadah ichkuncha oyog‘im sinsin yoki qadahim sinsin fikri bilan tugallangan. So‘ngi qo‘llangan oyoq so‘zi o‘z ma‘nosida kelganda bayt avvalidagi so‘z bilan omonimlik hosil qiladi:

*Qondin elga yoydi tifli ashk sirrimni mening,  
Chunki men ul yoshni hargiz sohib asror etmadim.*

So'zlarning ma'no qatralariga e'tibor qilsak, ikki o'rinda iyhom qo'llanganini guvohi bo'lamiz. Bu esa “qondin” va “yosh” so'zlari orqali amalga oshirilgan. Birinchi so'z qon ma'nosi bilan birga qanday ma'nosida, yoshni so'zi esa ko'z yosh bilan birgalikda yosh go'zal, mahbuba ma'nosini ham tushunish mumkin. Qon bilan elga ishq bolasi sirimni yoydi, chunki hanuz u yosh dilrabonining sirlarini sohibi bo'lomagandim yoki mening sirimni ishiq bolasi qanday qilib, elga oshkor qiloldi. Axir men uning ko'yidagi hijron ko'z yoshimni hali sirini berkitishga ulgurmogandim. Iyhom ma'nolarini boshqa yana ikki usulda almashtirib, fikriy kashfiyot yaratish mumkin.

*Qon ila elga yoydi tifli ashk sirrimni mening,  
Chunki men ul yosh go'zalni hargiz sohib asror etmadim.  
Qanday qilib elga yoydi tifli ashk sirrimni mening,  
Chunki men ul ko'z yoshni hargiz sohib asror etmadim.*

Iyhomdagi so'z ma'nolarini qanday qilib joylashtirsak ham yangi fikr va ta'rif hosil bo'laveradi. Bir baytning o'zida iyhomning takror qo'llanishi ma'no qirralarini ko'paytirgan. Har bir mazmun tovlanishlardagi fikriy kashfiyotlar Boburning mohoratining xarakterli belgilaridir.

Fikrlarni umumlashtirsak, iyhom badiiy san'ati Bobur she'riyatining mazmun qatlamiga rang-baranglik olib kirgan. Xususan iyhom shoir ijod yo'lining shakllanishida, ramziy va sirli ma'nolarning yuzaga chiqishida muhim vosita vazifasini bajargan. Shoirning bu san'atdan foydalanishdagi o'ziga xosligi ham shu bilan belgilanadi. Muallif bu she'riy san'atni qo'llashda hayot yo'lidagi voqealarda, tarjimai hollikda, yor tarifida, o'ziga yaqin bo'lgan insonlar ismida, hijron motivlarida o'rinli foydalangan. Bobur murakkab mumtoz san'atdan ma'no murakkabliklarini anglatishda qo'llay olgan.

### Adabiyotlar:

1. Rahmonov V. Mumtoz so'z sehri. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
2. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
3. Atoulloh Husayniy. Badoye' us-sanoe'. –Toshkent: Adabiyot va san'at. 1981.
4. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog'a. – Toshkent: Xazina, 1996.
5. Qamar Rayis. Bobur shaxsiyati va she'riyati. –Toshkent: ANDIJON NASHRIYOT –MATBAA. 2007.
6. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999.
7. Bobur. Devon. Mahrami asror topmadim. –Toshkent: Yozuvchi. 1993.
8. Bobur. Devon. Sochining savdosi tushdi. – Toshkent: Sharq. 2007.
9. Bobur. Devon. Kobul nashriga takmila (qo'shimcha). – Toshkent: Sharq. 2004.
10. Qudratullayev H. Bobur armoni. – Toshkent: Sharq, 2009.



11. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq. 2014.
12. Bobur. Muxtasar. – Toshkent: Fan, 1971, 55-b.